



JAVOHIRI MUFRADAH-YAGONA GAVHAR ASAR

Ne'matova Mashrabbonu

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotda avval qo'llanmagan javomiul kalim iborasi ishlatiladi va uning mohiyati qisman ochib beriladi. Navoiyning buyuk asarlaridan biri "Xazoinul maoniy" haqida va uning qo'lyozma fondlardagi saqlanayotgan nusxalari haqida so'z boradi. Ulug' asardan javomiul kalim uslubiga doir tilga oid baytlar keltiriladi

Kalit sozlar: Javomiul kalim, Xazoinul maoniy, Jomiy, debocha, Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil kotib, chordevon

Аннотация: В данной статье используется словосочетание «джавамиул калим», ранее не употреблявшееся в литературе, и частично раскрывается его значение. Упоминается одно из великих произведений Навои «Хазоинул Маоний» и его копии, сохранившиеся в рукописных фондах. Стихи, относящиеся к языку Джавамиул калим, взяты из великого произведения

Ключевые слова: Javomiul kalim, Xazoinul maoniy, Jomiy, debocha, Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil kotib, chordevon

Annotation: This article discusses the meaning of love in Alisher navois works and their meanings. In particular, the verses written Hazrat Navoi in the style of javomiul kalim are analyzed

Key words: Jawamiul kalim, Hazoin ul-maoniy, Jamiy, Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil kotib, four diwans (poetry collections)

Har bir millatning bir yoki bir necha ulug' farzandlari bo'ladi, ular Alloh Taolo ato etgan buyuk g'ayrat, mislisiz iroda, teran aql idrok va ezgu axloq odoblari bilan shu xalq bayroqlari kabi muqaddas timsollarga aylanadilar. Ular andozaga sig'maydigan ulug' xizmatlari tufayli el tomonidan boshga ko'tariladi, asrlar xatto ming yilliklar davomida qadrlanadi.

Jahon adabiyoti titanlarini ko'z o'ngimizda tizadigan bo'lsak albatta bu safning ichidan Navoiy Hazratlari avvalgi o'rinlarni egallaydi.

O'zbek adabiyotimiz shoxsupasida uch iqtidor Navoiy, Bobur va Ogahiy bo'lsa istisnosiz birinchi o'rin Alisher Navoiygagina xosdir. Chunki Naviygacha va ulardan keyin ham U zotning istedodi darajasidagi inson hali yorug' olamga kelmadi. Bu haqiqatni 15-asrdayoq zamondoshlari Jomiy, "Hiradnomai Iskandariy", Bobur



“Boburnoma”, Xondamir “Makorimul axloq”, va Muhammad Haydar mirzo “Tarixi Rashidiy” asarlarida aniq ravshan yozganlar, ta’kidlaganlar.

Navoiyni bu darajaga chiqishiga millatimiz adabiyotiga qilgan xizmatlarini qayd etaylik. Birinchidan, Navoiygacha ijod qilgan mumtoz shoirlarimiz saflari siyrak va adabiy mahsullari ozroq, ular shug‘ullangan adabiy janrlar mundarijasi qisqa edi. Alisher Navoiydan keyin ham bu manzara unchalik o‘zgarib ketmadi.

Agar ilmda mubolag‘a qilish mumkin bo‘lsa, Navoiy o‘zbek adabiyotida ijobiy ma’noda inqilob yasadi. Uning bir o‘zi yuzga yaqin istedodlar yukini elkasiga oldi. Uning bir o‘zi 15- asrda turkiy adabiyotni dunyoning juda boy adabiyoti bo‘lgan fors adabiyoti bilan bo‘ylatib qo‘ydi.

Navoiy shunday takrorlanmas zotki, ular haqida qancha yozsak, so‘zlasak adog‘i yo‘q.

Adabiyotda “*javomiul kalim uslubi*” degan ibora yo‘q, biroq bu uslubga adabiyotdagi maqollar, hikmatli so‘zlar, baytlarni misol qilish mumkin. Magistirlilik dissertatsiya mavzusida aynan adabiyotdagi javomiul kalim uslubini Hazrat Navoiyning qo‘lyozma va toshbosma asarlari talqinida yozish maqsad qilingan.

Navoiyning asarlari judayam buyuk va kengdir. Shu sababli “Xazoinul maoniy” asari asos qilib olindi. “Xazoinul-maoniy” (Ma’nolar xazinasini) degan ma’noni bildiradi. Mazkur asarga 1491-1496 yillarda tartib berilgan. “Xazoinul maoniy”, “G‘aroyibus-sig‘ar” “Yoshlik g‘aroyibotlari”, “Navodir ush-shabob” “Yigitlik nodirlik she’rlari”, “Badoye’ul-vasat” “O‘rta yosh badialari” va “Favoyidul-kibar” “Keksalik foydalari” nomli devonlardan tarkib topgan mukammal yig‘ma devon. Xalq orasida “Chordevon” deb ham yuritiladi. Asarning tuzilish tarixini Alisher Navoiyning o‘zi “Xamsatul mutahayyirin”, “Munshaot”, “Muhokamatul-lug‘atayn”, ayniqsa, “Xazoinul maoniy”ga maxsus yozgan “Debocha”sida bayon etgan.

Ushbu asarlarda yozilishicha, Abdurahmon Jomiy o‘z she’rlarini to‘plab 1491-1492 yillarda, uchta devon tuzgan va Navoiyga taqdim etgan. Navoiy bu devonlarning aralashib ketmasligi uchun ularga maxsus nomlar qo‘yishini maslahat bergan. Navoiy maslahati Jomiyga ma’qul tushgan va u devonlarini “Fotihatush-shabob” “Yoshlikning boshlanishi”, “Vositat-ul iqd” “Bog‘lanish vositalari”, “Xotimat-ul hayot” “Hayot xotimasi” kabi nomlar bilan atab, umumiy “Debocha” yozgan hamda bu fikrning Navoiydan chiqqanligini alohida ta’kidlagan. Shundan so‘ng, Navoiy ham ustozlari bilan barcha lirik she’rlarini to‘plab “Xazoinul maoniy”ni tuzishga kirishgan.

“Xazoinul maoniy”ning yuzaga kelishi Jomiy va Navoiy do‘stligining, o‘zbek va tojik adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalarning yorqin dalilidir. “Xazoinul maoniy” 45



ming baytga yaqin, 3130 dan ortiq lirik she'rlardan tuzilgan. Unga shoirning 7-8 yoshidan boshlab umrining oxiriga qadar yozgan o'zbekcha she'rlari kiritilgan. "Xazoinul maoniy" tarkibida qariyb 2600 g'azal, 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 10 muxammas, 10 chiston, 13 tuyuq, 4 mustazod, 5 musaddas, 4 tarji'band, musamman, tarkibband, qasida, masnaviy, soqiynomasi mavjud. Har bir janrdagi she'rlar qofiyasi yoki radifidagi tugallanuvchi harfga qarab ma'lum tartib asosida joylashtirilgan.

"Xazoinul maoniy" o'z davridagi ma'naviy hayotning o'ziga xos qomusi bo'lib, shoir o'z she'rlarida hayotni, insonni, uning olijanob tuyg'u va intilishlarini ulug'lagan. "Xazoinul maoniy"ni yaratish uchun shoir o'zining butun umrini sarflagan va bu bilan g'oyat faxrlanganini asarning "Debocha"sida quyidagicha yozadi:

*Sarf etdim anga umr bahorin dog'i,
Bo'stoni hayotu lolazorin dog'i.
Oldida xazoni zar nisorin dog'i,
Kofurfishon qish bila qorin dog'i.*

Alisher Navoiy "Xazoinul maoniy" bilan o'zbek she'riyatining janr va mavzu doirasini yanada boyitdi. O'zbek she'riyatida biron ijodkor bunday mukammal devon tuzish darajasiga ko'tarila olmagan. Shoirning bu devoni qo'lyozma nusxalarda to'liq va qisqartirilgan holda bir qancha mamlakatlarda qayta qayta ko'chirilgan va ko'p bor nashr etilgan.

O'zR FA ShI (3-fond) Navoiyga mansub 24 asarning 254 qo'lyozmasi saqlanadi, undan ko'pchiligi devonlarning nusxalari. Navoiy devonlari professori H.Sulaymon tomonidan yig'ilib, tasnif etilgan. «Ilk devon» Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida (inv.564) saqlanadi. «Navodir un-nihoya» O'R FA ShI (inv.1995) dagi nusxalari nihoyatda nodir bo'lib, ular Navoiy davrida Hirotda Sulton Ali Mashhadiy (1487), Abdujamil kotib (1487-1488) tomonidan ko'chirilgan.

O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida 15-20 asrlarda ko'chirilgan 166 qo'lyozma saqlanadi. Ulardan 84 tasida beshlikning hamma dostonlari berilgan. Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she'rlarini yig'ib, «Ilk devon» (1464-1465) tuzgan edilar, so'ngra «Badoyiul-bidoya» («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodir un-nihoya» («Nodirliklar nihoyasi») nomli devonlarga (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq «Xazoinul-maoniy» nomli to'rt devon (1491-1498)ga jamlangan.



Navoiy she'riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko'lami xilma-xil. G'azallari «oshiqona, orifona, rindona» sifatlari bilan o'rganiladi.

G'azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg'un holda ulug'lanib, «majoz – haqiqat ko'prigi» aqidasi amal qilingan.

Alisher Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

«Nazmul-javohir» (1485) Hazrat Alining «Nasrul-laoliy» asarining turkiy nazmga solingani bo'lib, 266 ruboiydan iborat bu asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar o'z aksini topgan.

Qo'lyozmalar Institutiga a'zo bo'lib, u yerda Navoiy asarlarini qo'lyozma nusxalarini bir nechtasini ko'rib ustida tadqiqot o'tkazildi. “Navodurush-shabob” sheri to'plami usti jildi yo'q, ta'mirlangan, ayrim joylari yirtilgan holatdadir. Kitob 83 betdan iborat gazallar 7,14 baytdan iborat. Kitobning 6 betida 1,2 misrali hikmatlar bor. 3 marta “bismillahir rohmanir rohim” jumlasini bilan boshlangan kitob juma kuni hijriy 1297 yilda yozilib tugatilgan. “Badoyiul-vasat” (o'rta yosh badialari) nomli asarni ham 2 ta nusxasini ko'rdim. Ikkinchisini ham muqovasi yo'q ta'mirlangan, biri 488 bet, uni 11 beti hikmatli ruboiylardir, qolgan qismi 11 qatorli g'azallardir. Abduhakim kotib tomonidan yozilib, hijriy 1250-yilda tugatilgan. Shu asarni yana biri 202 betdan g'azallar musaddas, musabbalardan iborat. Kotibi no'malum, hijriy 1299-yilda yozib tugatilgan. “Xazoinul maoniy” asarini “Navodurush-shabob” ya'ni *Nodir yigitlik kitobidan* mavzumizga oid Javomiul kalim uslubidagi nasixatli hikmatlarini keltiriladi:

*Kimki, ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan,
unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi.
Ko'nglida til nayzasining jarohati bitmas
u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxob Raxmon “Mumtoz so'z sehri” Toshkent “O'zbekiston” 2015
2. Abu Bakr Kaffol Shoshiy. Javomiul Kalim.toshkent 2011
3. Alisher Navoiy.Gazallar,Sharxlar Toshkent.1977
4. Alisher Navoiy. Aforizmlar OzSSR Orta va oily maktab davlat nashriyoti 1961
5. Zuxd va xayo. Toshkent, Hilol nashr 2019.
6. Alisher Navoiy Lisonut tayr. Toshkent Gafur GulomNMIU 1984.
7. Alisher Navoiy Hikmatlar. Toshkent 2014.